

Yangi O'zbekistonda Sog'liqni Saqlash Sohasining Rivojlanishi. (Mustaqillik Yillari Va 2016-2024-Yillar)

Xabibullayev Shaxboz Sabohiddinovich¹, Mardiyeva Guzal Karimovna²

Annotatsiya: "O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasining rivojlanishi" deganda biz nimani tushunamiz: Mustaqillikga erishganimizdan toki hozirgacha bo'lgan davrni qamrab olib, mavjud kamchiliklarimizning o'r ganilib: uskuna-asbob, malakali kadrlar, yangi tibbiyot muassalari, talabalar uchun yangi o'quv binolari, zamonaviy kompislar va eng ohirgi ilg'or tehnologiyalar asosida ish olib borishni tashkil etishni yo'lga qo'yilishi, rivojlanish sari ilk qadamlarni tashlashimizni asosi bo'ldi. Biz bu sohadagi yangiliklar, Ilg'or tehnologiyalar va yaratilishi lozim bo'lgan yangi strategik ammaller, qonun loyihalarni tuzulib chiqilishiga alohida e'tibor qaratamiz.

Kalit so'zlar: Harakatlar strategiyasi, mustaqillik, milliy indikator, inson, tibbiyot, tibbiy sug'urta, virtual qabulxona, fuqaro huquqi.

So'ngi yillarda sog'liqni saqlash sohasida yurtimizda olib borilayotgan islohatlar ushbu tizimni yanada yuqori pog'onalarga olib chiqmoqda. 2016-yilda Davlatimiz Prezidenti etib Shavkat Mirziyoyev Miromonovich saylandi. Undan so'ng biz uchun muhim hisoblangan Harakatlar Strategiyasi 2017-yil 7-fevralda tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish"ning 5 ta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi Barqaror rivojlanish maqsadlarini bajarish bo'yicha mamlakatimizning milliy "yo'l xaritasi" sifatida xizmat qilib, 5 yil mobaynida undan oqilona tarzda foydalanib ish ko'rsatishimiz va yangiliklar qilishimizga imkoniyat bo'ldi. 2017-yildan yangi O'zbekistonni qurish ishlari jadallik bilan boshlanib ketdi.

Ta'kidlash joizki, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlariga to'la hamohang bo'lgan Harakatlar Strategiyasiga muvofiq qabul qilinayotgan Davlat dasturlariga binoan ishlab chiqilib, hayotga tadbiq qilinayotgan qonunlar mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Xususan: quyidagi sohalarda:

1. Tizimning yangilanishi: Mustaqillikdan so'ng, sog'liqni saqlash tizimi xalqaro standartlarga mos ravishda qayta tashkil etildi. Bunda asosiy e'tibor bemorlarning sifatli xizmat olishiga qaratildi.
2. Sog'liqni saqlash muassasalari: Davlat va xususiy sektorlarda tibbiyot muassasalari ko'paydi. Tibbiy xizmatlar turli hududlarda yanada kengaytirildi.
3. Dasturlar va loyihamalar: Epidemiyalarning oldini olish, emlash dasturlari, onalar va bolalar sog'lig'ini muhofaza qilish bo'yicha bir qator davlat dasturlari ishlab chiqildi va amalga oshirildi.
4. Malaka oshirish: Tibbiyot mutaxassislari uchun malaka oshirish dasturlari va treninglar tashkil etildi, bu esa tibbiy xizmatlar sifatini oshirishga yordam berdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktabridagi qarori 2030-yilgacha bo'lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida Milliy indikatorlarni ishlab chiqaradi. Albatta, Barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsadlarning to'la to'kis amalga oshirilishi jamiyatning izchil rivojlanishiga, xalq farovonligi va turmush sifatining yanada yaxshilanishiga, O'zbekistonning xalqaro imijining yuksalishiga xizmat qiladi. Mamlakatimizda inson salomatligi va uning turmush farovonligini oshirishga e'tibor bugun o'z samarasini bera boshladi. Ayniqsa, shifo maskanlarida

¹ Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti 2-sون Davolash ishi 108-guruh

² Samarqand davlat tibbiyot universiteti o'qituvchisi



ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifati oshib, fuqarolar, qolaversa, davolanuvchilar uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Prezidentimizning 2020-yil 12-noyabrda qabul qilingan “Sog'lijni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida” gi qarorida fuqarolarni davlat tomonidan tibbiy sug'ortalash masalasi o'z aksini topdi.

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida maxsus tibbiy sug'ortalash jamg'armalari faoliyat yuritmoqda. Ularning asosiy maqsadi-bemorlarga sifatlari tibbiy va profilaktik yordam ko'rsatilishini ta'minlash uchun majburiy tibbiy sug'ortalash tizimini moliyalashtirishdir. Yurtimizda ham Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya, Fransiya, Germaniya, Norvegiya, Rossiya kabi davlatlarning bu boradagi tajribasi asosida Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi tashkil etildi.

Shu tariqa Sirdaryo viloyati sog'lijni saqlash tizimida 2021-yilning 1-iyulidan 2022-yil oxiriga qadar tajriba-sinov tariqasida sog'lijni saqlash tizimining yangi modeli va moliyaviy mexanizmlari sinovdan o'tkazildi. Sirdaryo viloyatidagi 11 ta tuman (shahar) tibbiyot birlashmasi, 18 ta viloyat sog'lijni saqlash muassasasi bilan shartnomalar imzolandi. Ushbu shartnomalarga asosan birlamchi tizim muassasalari ularga biriktirilgan aholi soni va tarkibidan kelib chiqib, dispanser xizmatlari ko'rsatuvchi muassasalar global byudjet assosida va stasionar muassasalar bajarilgan ishlar natijasi (davolangan holatlar) bo'yicha moliyalashtirish tizimiga o'tkazildi.

Sog'lijni saqlash tizimining yangi modeli: Ayni vaqtida Prezidentimizning 2021-yil 28-iyuldagи “Sog'lijni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi qaroriga muvofiq, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi bilan tuzilgan shartnomaga asosida tibbiy xizmatlarning bazaviy narxlarida moliyalashtirilmoqda. Bugungi kunda 14 ta respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazi va Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi o'rtaida shartnomalar tuzildi. Ixtisoslashtirilgan muassasalarda bemor davolanganidan so'ng Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi tomonidan bazaviy narxlar doirasida bemorga ko'rsatilgan tibbiy xizmatlarni asoslovchi hujjatlarga muvofiq, sarflangan mablag' ixtisoslashtirilgan muassasalarga Davlat byudjeti hisobidan o'tkazib berilmoqda. Noyabr oyidan respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiyasi va urologiya, 2022-yil 1-yanvardan kardiologiya, travmatologiya va ortopediya hamda akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari tomonidan ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarga Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan nodavlat tibbiyot tashkilotlari tomonidan ko'rsatilishiga ruxsat berildi. Bunda Sog'lijni saqlash tizimining yangi modelini yaratish asosiy maqsad va vazifa qilib belgilanib olinadi. Bundan oly maqsad esa aholi turmush tarzini yaxshilash va sog'lom turmush tarzini yaratish, kasaliklarning oldini olish va ular bilan sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlar o'tkazishni tashkil etish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 9-noyabr kuni sog'lijni saqlash tizimini rivojlantirish, hududlar aholisini sifatlari tibbiy xizmat bilan qamrab olish, tibbiyot muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash borasidagi islohotlar natijalarini tahlil qilish va istiqboldagi ustuvor vazifalarni belgilashga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi o'tkazilgan edi. Bu haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-saytida ma'lum qilingan. Keyingi ikki yilda Prezidentning sohaga oid 50 ta farmon, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining 70 dan ziyod qaror va farmoyishlari qabul qilindi. 6 ta yangi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi tashkil etilib, ularning soni 16 taga etdi. Xalqimizga yanada qulay bo'lishi uchun hududlarda ularning 10 ta filiali ish boshladi. Tuman va shahar shifoxonalarida 306 ta yangi ixtisoslashgan bo'limlar, 1200 ta tez tibbiy yordam shoxobchasi ochildi.

Umuman olganda, joriy yillarda tibbiyot sohasiga davlat byudjetidan 2017-yilga nisbatan 40 foiz ko'p mablag' ajratildi. Yig'ilishda kelasi yillarda sohaga qariyb 30 foiz ko'p mablag' yo'naltirish rejalishtirilgani qayd etildi.

Prezidentimizning qabul qilingan qarorlarining birida “Davlat tibbiyot muassasalari va sog'lijni saqlashni boshqarish organlari xodimlarini moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari



to‘g‘risida”gi qarori sohadagi yana bir ijobiy yangilik bo‘ldi. Unga muvofiq, tibbiyot xodimlarining oylik maoshi 1-dekabrdan 20 foizga, 2019-yil 1-apreldan yana 15 foizga oshirilgandi.

Lekin shunga qaramay sohada hali kamchiliklar yo‘q emas, chunonchi, Prezidentning Virtual qabulxonasiga tibbiyot sohasiga doir 45 mingdan ziyod murojaat kelib tushgani, bu sohada hali muammolar borligini ko‘rsatilayotganligini qayd etadi. Masalan, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami tizimi, tuman markaziy shifoxonalarining moddiy-texnika bazasi va malakali kadrlar bilan ta‘minlanish darajasi talabga javob bermaydi. Buning oqibatida hududlardagi bemorlar katta mablag‘ sarflab, Toshkent shahriga kelishga yoki chet davlatlarga borishga majbur bo‘lmoqda. Shu bois yig‘ilishda tibbiyot tizimidagi muammolarni vaqtida aniqlash va hal etish, buning uchun hududlardagi holatni to‘liq qayta ko‘rib chiqish, o‘rganishlarda qishloq vrachlik punktlari va oilaviy poliklinikadan markaziy tibbiyot muassasalarigacha qamrab olishi lozim.

Tibbiy xizmat ko‘rsatishda respublika, viloyat, tuman va qishloq bo‘g‘inlari o‘rtasida bog‘liqlikni kuchaytirish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi. Bunda, avvalo, mahallalarda profilaktika ishlari va tibbiy ko‘riklar yaxshi tashkil etilib, kasalliklarning oldi olinadi, zarur hollarda bemorlar tuman va viloyat markazlariga yuboriladi. Tuman tibbiyot birlashmalari esa kasallarni imkon qadar o‘zida davolab, og‘ir bemorlarni viloyat va respublika muassasalariga yo‘naltiradi. Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari esa o‘z ixtisosligi bo‘yicha yagona metodik, texnologik, davolash va profilaktika siyosatini amalga oshirib, aholi salomatligini mustahkamlaydi.

2021 yildan boshlab yurtimizda majburiy tibbiy sug‘urta tizimini bosqichma-bosqich joriy etish, Janubiy Koreya, Singapur, Germaniya kabi davlatlardan xalqaro konsultantlarni jalb qilgan holda, tegishli qonun va qonunosti hujjatlarini ishlab chiqish yo‘lga qo‘yila boshladi.

Tibbiyot sohasida davlat-xususiy sheriklik tizimini rivojlantirish, ayrim davolash muassasalarini shunday sheriklik asosida yuqori texnologik uskunalar bilan jihozlash, ularga to‘liq moliyaviy mustaqillik berish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-38 sonli qaroriga asosan Sog‘liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni chuqurlashtirish, aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash, tibbiyot muassasalari faoliyatini ilg‘or xorijiy tajriba asosida tashkil etish, tibbiyot kadrlarining salohiyatini oshirish nodavlat tibbiyot tashkilotlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadidagi Prezidentimizning qarorlari xususiy klinikalar ishini yanada tezkor va sifatli bo‘lishini ta‘minlab, tibbiyot xodimlari ishida ham yengilik va qulayliklar, o‘z kasbiga mehrini yanada oshirdi desak yanglishmagan bo‘lamiz. 2024-2025-o‘quv yildan Tibbiyot oliygoohlari talabalari uchun shifokor bo‘lib ishlashlashlari uchun imtixon topshirishlari(2 bosqichli davlat imtixonlarini o‘tkazish 1-bosqichda talabalar fundamental fanlar bo‘yicha yakuniy davlat imtixonlarini; 2-bosqichda klinik fanlardan imtixon topshiradi)bu tibbiyot sohasining yana bir bor mukammalashuvi, rivojalanuviga, malakali Shifokor kadrlarni yetishib chiqishi uchun judda katta imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham fuqorolarning tibbiy xizmatlardan foydalana olishi to‘g‘risida bir necha moddalarda o‘z tasdig‘ini topgan. Xususan: 38,39,48-moddalarda O‘zbekiston Respublikasining har bir fuqarosining (Davlatning fuqorolar sog‘ligini nazoratga olish) bu kabi imkoniyatlardan foydalanishi belgilanib qo‘yilgan.

Bu moddalarga asosan, sog‘liqni saqlash sohasidagi qonunlar va qarorlar qabul qilinadi. O‘zbekiston Respublikasining “Sog‘liqni saqlash to‘g‘risida”gi qonuni, “Tibbiy yordamni ko‘rsatish to‘g‘risida”gi qonunlar hamda boshqa normativ hujjatlar sog‘liqni saqlashni tartibga solishda asosiy rol o‘ynaydi. Bu qonun va qarorlarimizdan asosiy maqsad yurtimiz ahliga xizmat qilish, ularni himoya qilish, tibbiy huquqlaridan to‘laqonli foydalanishni ko‘rsatib berishimiz bo‘ladi. Quvonch bilan shuni eslashimiz va aytishimiz mumkinki, 2023-yilimizda O‘zbekiston Respublikasida Referendum (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish) xalqimiz uchun muhim ahamiyat kasb etadigan jarayonlar bo‘lib o‘tdi.U say harakatlarimizning barchasi Yurtimiz ahli uchun hizmat qilib, ularni yanada o‘z maqsad va intilishlari yo‘lida birlashtirdi. Baralla aytib o‘taman bu Referendumda Sog‘liqni Saqlash Sohasiga ham yuksak e’tiborlar qaratildi. Darhaqiqat shu bilan birga Murakkab Jarrohlik ishlari ham 2023-yildan boshlab o‘zimizda ko‘plab tashkil e’tilib Xalqimizga



yengilliklar yaratildi. Bu bilan yurtimiz fuqarolariga kamxarj va oilasidan uzoqlarga (Hindiston, Amerika, Rossiya va boshqa davlatlarga borib sarsongarchilik bo'lmasligiga) ketib xar hil qiyinchiliklarga duch kelmasligi uchun sharoitlar yaratilganligini aytib o'tishim kerak. Murakkab bo'lgan Buyrak transplatsiyasi, Yurak nuqsonlari bilan azoyat chekadigan, Oshqozon muammolari bilan qiynaladigan, Yirik turdag'i Jarrohlik amaliyotlari yo'lga qo'yildi. Bu faqat faqat xalqimizga foyda va nur ustiga a'llo nur bo'lmoqda.

Xulosa: Xulosa sifatida shuni aytib o'tish joizki, har bir inson o'z salomatligi uchun o'zi masuldir. Inson o'zi uchun harakat qilmas ekan, kasalliklarga qarshi kurashmas ekan, turli xil kasalliklarga chalinishi, ular bilan azyiat chekishi, mumkin. Lekin bu vaziyatlarga davlatimiz va shifokorlarimiz shundoq qarab qolmaydi, bu kabi holatlarga qarshi kurashib turli xil vaksinatsiyalar va inson salomatligini oshirish uchun sog'lomlashtiruvchi muhitni yaratishga hamisha harakatda bo'ladi. Muhtaram yurtboshimiz bu bo'yicha juda ko'plab qaror va loyihibar chiqarib inson salomatligi birinchi o'rindaligini tasdiqlab qo'yan. Salomatligingizga e'tiborsiz bo'lmaning garchi salomatligingiz o'z qo'lingizdadir...

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2017.
2. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mirziyoyev Sh.M. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2017.
3. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarni ta'minlash yurtimiz taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Mirziyoyev Sh.M. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2017.
4. Xoliqova R.E. O'zbekistonning eng yangi tarixi. O'quv qo'llanma. Toshkent- 2021.
5. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi / Sh.M. Mirziyoyev. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2022.
6. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" da amalga oshirishga oid Davlat Dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola. Mualliflar jamoasi. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2017.
7. Karimov I.A. Asarlar to'plami, 1-23 jiddlar.-T.:O'zbekiston, 1996-2016.
8. O'zbekiston tarixi. Darslik/Jurayev N.-Toshkent: "Sharq" 2011, 1-kitob.

Elektron resurslar

1. <https://president.uz/oz/lists/view/2128>
2. <https://yuz.uz/uz/news/soglijni-saqlash-tizimida-olib-borilayotgan-islohotlarni-izchil-davom-etirish-va-tibbiyot-xodimlarining-salohiyatini-oshirish-uchun-zarur-shart-sharoitlar-yaratish-togrisida>
3. Lex.uz sayti

